

GAP BO'LAKLARI

Sharifova Zaynabxon Sarvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

pedagogika fakulteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20067830>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida gap bo'laklari tizimi, ularning shakllanish asosi bo'lgan predikativlik va sintaktik aloqa turlari tahlil qilinadi. Maqolada an'anaviy grammatikadagi qarashlar (G'ulomov, Kononov) va zamonaviy sintaktik nazariyalar (Nurmonov, Mahmudov) qiyoslanib, gap bo'laklarining darajalanishi bo'yicha muallif munosabati bildirilgan. Tadqiqot davomida har bir bo'lakning ifodalanish usullari va gap qurilishidagi vazifalari boy misollar yordamida dalillangan.

Kalit so'zlar: gap bo'laklari, predikativlik, subyekt, predikat, iyerarxiya, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, determinant.

Аннотация: В данной статье анализируется система членов предложения в узбекском языкознании, предикативность как основа их формирования и виды синтаксической связи. В статье сопоставляются взгляды традиционной грамматики (Гуломов, Кононов) и современные синтаксические теории (Нурмонов, Махмудов), а также выражается авторское отношение к градации членов предложения. В ходе исследования способы выражения каждого члена и их функции в структуре предложения обоснованы на богатых примерах.

Ключевые слова: Члены предложения, предикативность, субъект, предикат, иерархия, согласование, управление, примыкание, детерминант.

Abstract: This article analyzes the system of parts of the sentence in Uzbek linguistics, predicativity as the basis of their formation, and types of syntactic connection. The article compares the views of traditional grammar (Gulomov, Kononov) and modern syntactic theories (Nurmonov, Mahmudov), and expresses the author's attitude towards the gradation of parts of the sentence. During the research, the methods of expression of each part and their functions in sentence construction are proven with rich examples.

Keywords: Parts of the sentence, predicativity, subject, predicate, hierarchy, agreement, government, adjunction, determinant.

KIRISH. O'zbek tili sintaksisida gap bo'laklari masalasi hamisha munozarali va dolzarb bo'lib kelgan. Zero, til — millatning tafakkur tarzi va ma'naviy poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”¹. Ilmiy nuqtayi nazardan gap bo'laklarini o'rganish shunchaki so'zlarning vazifasini aniqlash emas, balki nutqning mantiqiy qurilishini tushunish demakdir. Gap tarkibidagi har bir bo'lak ma'lum bir predikativlik (fikrning voqelikka munosabati, zamon va shaxsda ifodalanishi) asosida birlashadi. Predikativlik gapni so'z birikmasidan farqlovchi asosiy belgi bo'lib, u asosan bosh bo'laklar zimmasiga yuklanadi.

ASOSIY QISM: Gap bo'laklari tizimini tahlil qilishda ularning iyerarxik tuzilishi va markaziy komponentlarini aniqlash muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida gapning markazi masalasiga nisbatan ikki asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv — binarsentrik (ikki markazli) konsepsiya bo'lib, unga ko'ra ega va kesim teng

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 24.

huquqli bo‘laklar sifatida gapning markazini tashkil etadi. Ushbu qarash A. G‘ulomov ilmiy maktabiga xosdir. Ikkinchi yondashuv esa verbotsentrik (fe‘lga asoslangan) konsepsiya bo‘lib, bunda kesim gapning mutlaq markazi sifatida talqin etiladi, ega esa unga tobe bo‘lak sifatida qaraladi. Bu fikr A. Nurmonov tomonidan asoslab berilgan. (5¹⁹⁸⁸: 42-b.)

Mazkur tadqiqotda ega va kesim o‘rtasidagi o‘zaro moslashuv munosabati gapning predikativ o‘zagini tashkil etishi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Ega fikrning subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, kesim shu subyektga tegishli harakat, holat yoki belgini ifodalaydi. Shu tariqa ular o‘zaro uzviy bog‘lanib, gapning mazmuniy va grammatik yaxlitligini ta‘minlaydi.

Ega gapning muhim bo‘laklaridan biri bo‘lib, u kesim bilan shaxs-son kategoriyalari orqali moslashadi. Eganing ifodalanish imkoniyatlari keng bo‘lib, u turli grammatik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Jumladan, ega mustaqil so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin: O‘qigan o‘zadi, Ikki to‘rtga bo‘linmaydi. Shuningdek, iboralar orqali ham ega ifodalanadi: Qavog‘idan qor yog‘ishi hammaga malol keldi. Bundan tashqari, otlashgan so‘zlar ham ega vazifasini bajaradi: Yaxshilar dunyoni saqlaydi. Tilshunoslikda eganing 13 xil usulda ifodalanishi haqidagi an‘anaviy qarash mavjud bo‘lib, u otdan tortib sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, taqlid so‘zlar hamda ayrim modal birliklarning otlashuvi orqali yuzaga kelishini qamrab oladi. (3²⁰²¹: 488-b.)

Ikkinchi darajali gap bo‘laklari — to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol — bosh bo‘laklarga nisbatan tobe munosabatda bo‘lib, ular bilan asosan boshqaruv va bitishuv aloqalari orqali bog‘lanadi. To‘ldiruvchi harakat yo‘naltirilgan predmetni ifodalaydi: U kitobni o‘qidi, Biz ustozimiz bilan suhbatlashdik. Aniqlovchi esa predmetning belgisi yoki qarashlilikini bildiradi: Tadbirkor insonning ishchilariga havasing keladi. Hol gapda harakatning turli jihatlarini — o‘rin, payt, sabab, maqsad, miqdor kabi xususiyatlarni ifodalaydi: Biz bahorda shahar chetiga dam olish uchun bordik. Ushbu bo‘laklar gapning mazmunini kengaytirib, uni aniq va ifodali qiladi.

O‘zbek tilining muhim xususiyatlaridan biri — so‘z shakllarining polifunksionalligidir. Ya‘ni bir xil leksik birlik turli sintaktik vaziyatlarda turlicha gap bo‘lagi vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, bugun so‘zi turli kontekstlarda ega (Bugun — bizning bayramimiz), hol (U bugun keldi) yoki aniqlovchi (Uning buguni kechasidan yaxshiroq) vazifalarida keladi. Bu hodisa so‘zlarning gap tarkibidagi o‘rni va ular o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa: Gap bo‘laklari tizimi o‘zaro teng huquqli birliklardan emas, balki murakkab iyerarxik munosabatlardan tashkil topadi. Bu tizimda kesim gapning strukturaviy va mazmuniy markazi bo‘lib, predikativlikni ta‘minlaydi, ega bilan birgalikda esa gapning ichki o‘zagini hosil qiladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar ushbu markaz atrofida tobe birliklar sifatida fikrni aniqlashtiradi va kengaytiradi. Gap bo‘laklarini aniqlashda sintaktik aloqa asosiy mezon hisoblanadi, chunki faqat so‘roq berish usuli ularning funksional mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Moslashuv, boshqaruv va bitishuv orqali so‘zlarning vazifasi aniqlanadi. O‘zbek tilining agglyutinativ xususiyati esa so‘z shakllarining polifunksionalligini ta‘minlab, ularning turli sintaktik vazifalarda kelishiga imkon yaratadi. Shu bois gap bo‘laklari tizimi grammatik va semantik jihatlarining uzviy bog‘liqligini aks ettiruvchi murakkab tuzilma bo‘lib, uni tahlil qilishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. (24-b).

2. Baxranov A., Shamsiyev B. Ona tili (ma'lumotnoma). – Toshkent, 2014. (272-281-b)
3. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Yosh kuch, 2021. (488-502-b).
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – Toshkent: Fan, 1988. (42-b).
6. Ona tili: 8-sinf darsligi. – Toshkent, 2019. (80-88-b).
7. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2007. (255-b).